



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI

2019-yil 1-dekabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot




2019-yil 1-dekabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot^{*)}

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-dekabr holatiga ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 415,1 mingtaga yetib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 23,0 % ga o'sdi.



Jami ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, ming birlik		01.12.2019 yil	
	01.12.2018 yil	01.12.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	337,6	415,1	123,0	100,0
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	26,0	31,2	119,8	7,5
Sanoat	58,9	73,7	125,0	17,8
Qurilish	30,3	37,9	125,3	9,2
Savdo	74,8	104,7	140,0	25,2
Tashish va saqlash	13,8	16,0	116,2	3,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	21,0	27,1	129,3	6,5
Axborot va aloqa	7,3	8,4	114,2	2,0
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	6,9	8,0	116,6	1,9
Boshqa turlari	98,6	108,1	109,6	26,0


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-dekabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 395,9 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 74,3 mingtaga (23,1 %) o'sgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 1-dekabr holatiga yillar kesimida soni, birlikda


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (70 420 ta yoki 17,8 %), savdo (99 673 ta yoki 25,2 %), qurilish (36 227 ta yoki 9,1 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (29 061 ta yoki 7,3 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (25 488 ta yoki 6,4 %) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (7 829 ta yoki 2,0 %), axborot va aloqa (7 915 ta yoki 2,0 %) hamda tashish va saqlashda (15 366 ta yoki 3,9 %) tashkil etgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-dekabr holatiga 335,0 mingta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 84,2 mingta, oilaviy korxonalar - 26,5 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 217,6 mingta va boshqalar 6,7 mingtani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-noyabr oylarida 89 923 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 1,8 martaga ko'pdir.

Yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda savdo va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasiga hamda eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019 y.




- Savdo
- Sanoat
- Boshqa turlari
- Qurilish
- Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Tashish va saqlash
- Axborot va aloqa
- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish


2018 y.



Jami yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Faoliyat ko'rsatayotgan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalari va tashkilotlari jamiga nisbatan ulushi



Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari va tashkilotlari soni bo'yicha ma'lumotlar, birlikda


01.12.2018 yil



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Ishlab chiqaradigan sanoat

01.12.2019 yil




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

01.12.2018 y.



01.12.2019 y.




Binolar va inshootlar qurish

Fuqarolik obyektlarini qurish

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


**Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, birlikda**
(2019-yil 1-dekabr holatiga)




**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**
(2019-yil 1-dekabr holatiga)




**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**
(2019-yil 1-dekabr holatiga)



Oilaviy korxonalar soni, birlikda
(1-dekabr holatiga)



**Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot**
(2019-yil 1-dekabr holatiga)



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2019-yilning 1-dekabr holatiga 227 207 tani tashkil etib, ulardan 217 594 tasi yoki 95,8 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 51 590 taga yoki 29,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida Respublikamizda 56,6 mingtaga yaqin mas'uliyati cheklangan jamiyatlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 23,5 mingtaga ko'pdir.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

	01.12.2019 yil		2019-yil yanvar- noyabr oylarida
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
Jami	227 207	217 594	56 586
<i>shundan:</i>			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	20 247	19 078	4 676
Sanoat	46 250	44 416	10 945
Qurilish	28 293	27 193	7 138
Savdo	64 783	62 144	20 993
Tashish va saqlash	13 434	12 929	2 431
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	12 940	12 218	3 073
Axborot va aloqa	5 185	4 919	1 107
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	4 009	3 926	844
Boshqa turlari	32 066	30 771	5 379

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 332,7 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 99,2 mingtasi (29,8 %) - savdo, 69,8 mingtasi (21,0 %) - sanoat, 36,1 mingtasi (10,8 %) - qurilish, 28,5 mingtasi (8,6 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,6 mingtasi (2,3 %) - axborot va aloqa sohasi, 6,3 mingtasi (1,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 15,2 mingtasi (4,6 %) - tashish va saqlash hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng ko'pi savdoda (33 478 ta), sanoatda (18 432 ta), qurilishda (8 281 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (6 644 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (1 188 ta), axborot va aloqada (1 519 ta) hamda tashish va saqlashda (2 801 ta) tashkil etilgan.


2019-yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yil 1-dekabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 10 229 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 858 taga yoki 38,8 % ga o'sgan.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning ulushi, %




2019-yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 30,5 % yoki 944 tasi sanoat, 28,7 % yoki 889 tasi savdo, 4,6 % yoki 144 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 7,5 % yoki 231 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 11,2 % yoki 347 tasi qurilish, 2,6 % yoki 79 tasi tashish va saqlash, 1,5 % yoki 48 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 2,4 % yoki 73 tasi axborot va aloqa hamda 11,0 % yoki 342 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 457 ta, Turkiya Respublikasi - 406 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 544 ta, Qozog'iston Respublikasi - 312 ta va Koreya Respublikasi - 208 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-noyabr oylarida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




**O'zbekiston Respublikasida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda**

	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Rossiya Federatsiyasi	1 812	1 109	703
Qozog'iston Respublikasi	793	404	389
Ozərbayjon Respublikasi	175	63	112
Qirg'iziston Respublikasi	153	87	66
Tojikiston Respublikasi	159	92	67
Turkmaniston Respublikasi	148	66	82
Ukraina Respublikasi	122	75	47
Belorus Respublikasi	70	45	25
Armaniston Respublikasi	32	19	13
Moldova Respublikasi	22	7	15


O'zbekiston Respublikasida MDH davlatlarining kapitali ishtirokidagi korxonalarining asosiy ulushi (*jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalariga nisbatan*) Rossiya Federatsiyasi 17,7 %, Qozog'iston Respublikasi 7,8 %, Ozarbayjon Respublikasi 1,7 %, Qirg'iziston Respublikasi 1,5 % va Tojikiston Respublikalarida 1,6 % ga to'g'ri kelmoqda.

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Toshkent shahri (83 114 ta), Toshkent (38 283 ta), Farg'ona (35 189 ta), Andijon (31 954 ta) va Samarqand (31 508 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Sirdaryo (12 533 ta), Navoiy (16 580 ta) hamda Jizzax (17 113 ta) viloyatlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Toshkent shahri (17 825 ta), Toshkent (9 188 ta), Samarqand (8 014 ta), Farg'ona (6 718 ta), Buxoro (6 038 ta), Navoiy (6 670 ta), Andijon (6 295 ta), Namangan (5 263 ta) va Qashqadaryo (5 262 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Sirdaryo (2 574 ta), Jizzax (3 512 ta), Surxondaryo (4 336 ta), Xorazm (4 617 ta) viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (3 611 ta) korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.


**Hududlar kesimida oilalar va faoliyat ko'rsatayotgan
tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda**

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


	Oilalar Soni ^{*)}	Tadbirkorlik subyektlari soni	
		01.12.2018 yil	01.12.2019 yil
O'zbekiston Respublikasi	8 489 671	263 278	335 017
Qoraqalpog'iston Respublikasi	402 427	11 964	14 719
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	792 250	22 710	27 145
Buxoro	512 987	14 798	19 862
Jizzax	301 867	11 128	13 983
Qashqadaryo	737 968	16 262	20 337
Navoiy	261 472	9 091	14 479
Namangan	693 905	16 953	21 263
Samarqand	916 096	19 496	25 942
Surxondaryo	597 840	11 851	15 345
Sirdaryo	207 533	8 290	10 438
Toshkent	806 176	25 304	32 653
Farg'ona	985 771	23 254	29 301
Xorazm	494 130	11 871	15 398
Toshkent sh.	779 249	60 306	74 152

**) 2019 yil 1 yanvar holatiga tumanlar (shaharlar) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kengashlari ma'lumotlari asosida jamlangan.*

**Hududlar kesimida har 1000 oilaga to'g'ri keladigan
tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-dekabr holatiga Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 332,7 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-dekabr holatiga qaraganda 27,4 % ga oshgan.

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar
va mikrofirmalar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


	Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	shundan:	
		Kichik korxonalar	Mikrofirmalar
O'zbekiston Respublikasi	332 676	22 145	310 531
Qoraqalpog'iston Respublikasi	14 645	889	13 756
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	27 014	1 417	25 597
Buxoro	19 726	1 060	18 666
Jizzax	13 937	605	13 332
Qashqadaryo	20 178	1 080	19 098
Navoiy	14 409	637	13 772
Namangan	21 149	1 269	19 880
Samarqand	25 806	1 710	24 096
Surxondaryo	15 229	876	14 353
Sirdaryo	10 389	438	9 951
Toshkent	32 384	2 105	30 279
Farg'ona	29 129	1 742	27 387
Xorazm	15 306	926	14 380
Toshkent sh.	73 375	7 391	65 984

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamidagi ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 72,4 mingtasi (22,1 %) Toshkent shahri, 32,4 mingtasi (9,7 %) Toshkent, 29,1 mingtasi (8,7 %) Farg'ona hamda 27,0 mingtasi (8,1 %) Andijon viloyatlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimida soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi Toshkent shahri (17 204 ta), Toshkent (8 854 ta), Samarqand (7 648 ta), Farg'ona (6 432 ta), Buxoro (5 836 ta), Navoiy (6 519 ta), Andijon (6 059 ta), Namangan (5 055 ta) va Qashqadaryo (4 881 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Sirdaryo (2 461 ta), Jizzax (3 303 ta), Surxondaryo (4 154 ta), Xorazm (4 451 ta) viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (3 421 ta) korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.


Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-dekabr holatiga 27 571 tani tashkil etib, ulardan 26 483 tasi yoki 96,1 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 72,9 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar soni to'g'risida ma'lumot, birlikda


	01.12.2019 y.		2019 yil yanvar-noyabr
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
O'zbekiston Respublikasi	27 571	26 483	11 939
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 030	998	360
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	1 296	1 264	745
Buxoro	1 875	1 784	908
Jizzax	771	729	248
Qashqadaryo	1 302	1 265	647
Navoiy	2 865	2 814	2 173
Namangan	507	495	201
Samarqand	4 525	4 300	2 052
Surxondaryo	1 147	1 125	418
Sirdaryo	186	173	96
Toshkent	2 963	2 715	1 184
Farg'ona	3 689	3 654	1 002
Xorazm	2 476	2 372	1 208
Toshkent sh.	2 939	2 795	697

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining soni 11 939 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,9 martaga ko'paygan.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**

	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
O'zbekiston Respublikasi	10 229	5 076	5 153
Qoraqalpog'iston Respublikasi	151	85	66
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	299	158	141
Buxoro	273	155	118
Jizzax	182	118	64
Qashqadaryo	189	139	50
Navoiy	201	125	76
Namangan	215	141	74
Samarqand	520	368	152
Surxondaryo	337	109	228
Sirdaryo	157	105	52
Toshkent	1 121	594	527
Farg'ona	406	283	123
Xorazm	135	83	52
Toshkent sh.	6 043	2 613	3 430

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Statistik registrlarni yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasi
Tel.:71-230-80-90 (91)